ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANI VA UNDAGI OBRAZLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi, o‘qituvchi
rayhon121274@gmail.com
Xudoyberdiyeva Durdona Umrzoq qizi
2-bosqich talabasi
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani va undagi obrazlar, ularning qarashlari va ruhiy holatlarini, ichki konfliktlarini, shuningdek, ilk mustaqillik davridagi o‘zgarishlar hamda o‘sha paytdagi insonlar holatini ifodalashdagi yozuvchining o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: realizm, konflikt, obraz, ruhiy holat, davr, ramziy ma’no.

Bugungi kunda adabiyot olamida Ulug‘bek Hamdamning alohida o‘rni bor. Adib o‘zining chuqur ma’noli asarlari bilan xalq orasida shuhrat va mehr qozongan. Uning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar”, “Ota” kabi romanlari, “Tangriga eltuvchi isyon”, “Atirgul”, “Seni kutdim” kabi she’riy to‘plamlari adabiyotimizning noyob durdonalari safiga kirgan. Uning ko‘plab asarlari xalqimiz va chet el kitobsevarlari qalbidan munosib o‘rin egallashga ulgurgan. Xususan, “Isyon va itoat” romani, “Yolg’izlik” qissasi, ko‘plab she’r va hikoyalari ruschaga tarjima qilingan. Ijodkorning “Muvozanat” va “Tosh” kabi roman hamda hikoyalari Amerikada alohida e’tirof etilgan.

Adibning har bir asari o‘ziga xos chuqur falsafiy ma’noga ega bo‘lgani kabi “Muvozanat” romani ham g‘oyat serma’no. “Muvozanat” mohiyatiga ko‘ra realistik roman hisoblanadi. Yozuvchi unda ilk mustaqillik davridagi o‘zgarishlar, qiyinchiliklar va insonlar ruhiy holatini mohirlik bilan ifodalagan.

“Muvozanat” haqida ko‘plab ijodkorlar fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan, xususan, Ozod Sharafiddinov “Romanni o‘qib chiqar ekanman, bugungi kun odamini tasvirlashda realizmning hali ochilmagan imkoniyatlari ko‘p ekaniga imon keltirdim”, - deydi [1,24].

Adib asarda yaqin o‘tmish, doimiy odatlangan turmushdagi o‘zgarishlar, yangi prinsiplar insonlar ongi va ruhiyatida kuchli o‘zgarishlar yasaganini, ichki va tashqi kelishmovchiliklar yuzasidan kelib chiqqan muvozanatsizlik holatlarini qalamga olgan. G’oyat murakkab tanlangan mavzu mohiyati, asar syujeti va g’oyasi roman nomining o‘zidanoq ko‘zga tashlanadi.

Albatta, asar mazmunida inson, ya’ni Yusufning taqdiri, uning o‘y-kechinmalari yotadi. Kitobxon qahramon bilan birga voqealar rivojida qatnashadi, kuzatadi, muammolar ildizi qayerdan paydo bo‘lganini topishga intiladi, birga yig‘laydi, kuladi, o‘sha davr muhitini ko‘z oldida paydo qilishga urinadi. Yozuvchining maqsadi ham aynan Yusuf va uning atrofidagi odamlar vositasida o‘sha davrni gavdalantirish bo‘lgan, desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Yusuf- o‘z fikriga va zamonaviy qarashlarga ega shaxs, halol yigit. O‘z kasbini yaxshi ko‘radigan va uni sidqidildan bajaradigan inson. Ma’rifatli bo‘lgani uchun mustaqillik nima-yu qaramlik nima juda yaxshi biladi. Yusuf har doim halol yashashga intiladi, o‘z qadriyatlariga sodiq qolishga, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tushunishga va

ularni hal etishga, to‘g‘ri yo‘ldan borishga urinadi. Ko‘pchilik odamlar singari Yusuf ham mustaqillikning dastlabki bosqichlarida- “Bozor iqtisodiyoti”ga o‘tish davri girdoblarida ancha dovdirab, muvozanatni yo‘qotib qo‘yadi. Yozuvchi esa bu holatni *“Yusufning ichida nimadir qarsillab sindi”* deya ta’riflaydi. U doim ishongan, qadrlagan muhabbat, do‘stlik, birdamlik kabi oliy tuyg‘ular puch bo‘lib chiqadi, hammadan hafsalasi pir bo‘ladi. Ayoli bilan ajrashadi, do‘stlari o‘z manfaatlari yo‘lidan ketib Yusufni butunlay unutadi.

Yuqorida Yusuf atrofida bo‘layotgan voqealarni tushunishga harakat qiladi dedik, bunga misol qilib qahramonning do‘stlari haqidagi quyidagi fikrlarini olishimiz mumkin: *“Axir, kechagina- rahbar lavozimida ishlab yurganida Said qanaqa edi, bugun- ishdan ketib, uyda o‘z qismati bilan o‘zi yolg‘iz qolganda qanday? Kecha uning yuzlaridan, gap- so‘zi-yu butun harakatlaridan kuch yog‘ilardi. O‘zini juda azim va arzigulik maqsadga bag‘ishlagani hamda o‘sha yo‘lda dadil qadam bosayotgani sezilib turardi. Erishga muvaffaqiyatlari shu qadar zo‘r ediki, esiga do‘stlik… Yusuf ham kelmasdi. Bugun-chi? Bugun u hammasidan mosuvo etildi va ilgarigi g‘ayratidan, ko‘zda chaqnab turgan olovdan asar ham qolmadi: cho‘kdi-ketdi. Demakki, u o‘zini tutib turgan maqsad-u manfaatidan, ko‘pchilik bilan bir deb his qilish yuksakligidan judo bo‘lib, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan yakkalanib qolgan…”[2, 252].*

“Mirazim- chi? Bolalikning barcha havaslari ro‘yobga chiqib, yuragi huvillab qolgan Mirazim! Orzularining birontasiga ham yetolmagan Amir bu yoqda aqldan ozar bo‘lsa, u yonda barcha niyatlari amalga oshgan Mirazim o‘zini bosh- keti yo‘q sahroga chiqib qolgandek his etmadimi? Etdi. Xo‘sh, nega? Axir, Mirazim hamma orzusiga erishdi-ku?!...Har ikkala holda ham inson yakkalanib qolmadimi?..”[2,253]

Darhaqiqat, Yusuf, Said, Mirazim talabalik yillarida juda qalin do‘stlar edi, Yusuf ularning “boshi”, eng aqllisi va ishbilarmoni edi. Ular hamma narsani birga baham ko‘rardilar, birgalikda muammolarni hal qilardilar. Keyinchalik, yillar o‘tgach, hamma o‘z yo‘lidan ketdi, to‘g‘rirog‘i, Yusufning ikkala do‘sti ham zamon po‘rtanalarida qulab ketmaslik uchun o‘zlarini har ko‘yga soldilar va hammasining yo‘llari ayro tushdi. Said katta lavozimda ishlash uchun hamma narsadan voz kechgan bo‘lsa, Mirazim ota kasbi tadbirkorlikni davom ettirib, butun dunyoni unutdi…

Asarda Yusufning akasi, Amir obrazi ham alohida ta’riflashga arzigulik personaj. U asarda berilgan eng ta’sirli obraz. Amir hech qaysi orzusi amalga oshmagan, umidlari puchga chiqqan va bu alamlar kelgusi hayotida achchiq iz qoldirib, natijada telbaga aylangan inson. U dinga shu darajada kirishganki, dunyoni tamoman unutgan, dunyo va din orasidagi muvozanatni yo‘qotgan. U aqlan va jismonan sog‘ bo‘lishiga qaramay jinnixonaga tashlanadi, o‘zini telbaday tutishga majbur bo‘ladi, jinnilar qo‘lida pati yulingan musicha qiyofasida ramziy ma’noda o‘zini ko‘radi.

Asardagi Sodiq obrazi- Yusufning bolalikdagi do‘sti- ikki muhitdan birini tanlolmay arosatda qolgan odam. U mustaqillikdan avvalgi zamon yaxshimidi yo hozirgi zamon yaxshimi- farqlay olmaydi. Eski tuzumni maqtay desa, ma’naviy jihatdan juda qiynaladi, mustaqillikni maqtay desa, moddiy jihatdan qiynaladi. Fikrlariga oydinlik kiritish uchun doim Yusufni so‘roq qiladi, Yusuf esa nima bo‘lishidan qat’i nazar mustaqillikni afzal ko‘radi.

Asardagi Zahro obrazi sadoqat va xiyonat o‘rtasida arosatda qolgan obraz sanaladi. Unda hamma narsa bor, faqat ozodlik, erkinlik yo‘q. U o‘qigan, ilmli ayol bo‘lishiga qaramay uyda tutqun kabi o‘tirishga majbur insonlarning timsoli sifatida tasvirlangan. Mirazim oilaga egalik tushunchasini noto‘g‘ri tushungani uchun Zahro xiyonat yo‘liga kiradi va butun umrini vijdon azobida o‘tkazadi.

Romanning eng muhim obrazlaridan yana biri tarixchi Muhammadjon aka obrazidir. U ilmning qadr-qimmatini biladigan, ammo zamondan qadr topmagan odam sifatida

tasvirlanadi. Keksayib, tez-tez kasal bo‘lib qoladigan Muhammadjon akaning bog‘i va qushlari uning yagona suyanchi va ovunchog‘iga aylanadi. Shu bilan birga, yozuvchi shu qushlar orqali ramziy ma’no yasashga urinadi. O‘limiga yaqin qushlarini qafasdan ozod qilishi mamlakatning ozod bo‘lishi va yosh nihollarning yetishib kelayotganidan xabar beradi.

Xulosa qilib aytganda, romanda hayot yo‘llari chalkashlik va arosatda qolib ketgan odamlar tasvirlangan. Ulardan biri ilm yo‘lida, ma’rifat izlab, odamlarni ziyoli qilish uchun yurgan, mamlakat tarixini ortiqcha bo‘yoqlarsiz yozib, avlodlarga qoldirishni niyat qilgan bo‘lsa, ayrimlari mansab yo‘lida o‘zini fido qilib, oxirida hech narsasiz qoladi, yana biri eng boy tadbirkor bo‘lishiga qaramay oiladan xalovat topmaydi, boshqalari qadr- qimmat ko‘rmay, orzulari ushalmay dunyoni tark etsa, yana ba’zilari hayot yo‘llarida arosatda qoladilar, nima qilarini bilmay, muvozanatni yo‘qotadilar. Qahramonlarning hech biri na baxt, na xalovat, na- da sevgi topadilar…

Romanda tasvirlangan har bir obraz yangi davr ostonasida turgan insonlarning hayotdagi muvozanatsizlik holatini, ularning adoqsiz o‘y-xayollari-yu iztiroblarini yoritib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.

2. Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat”. “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2007 www.ziyouz.com 252-B (PDF variantda).